

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА  
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ  
ЁНДАШУВЛАР : ИСТИҚБОЛЛАР, МУАММОЛАР  
ВА ЕЧИМЛАР**

*(Республика масофавий илмий-амалий анжумани)*

БУХОРО, 2020 йил, 3-ноябрь

“Мақтабгача таълимда компетенциявий ёндашувлар: истиқболлар, муаммолар ва ечимлар” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани илмий моқола ва тезислар тўплами (2020-йил, 3-ноябрь).

Бухоро: 2020 йил.

**Бош муҳаррир:**

Педагогика фанлари номзоди, доцент Г.А.Камилова

**Тақризчилар:**

Авезов С.С. – ф.ф.н, доц.

Тўхсанов Қ.Р. – ф.ф.н, доц.

**Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи:**

М.Б.Шарипова – Мақтабгача таълим кафедраси ўқитувчиси

Н.Н.Ҳамроева - Мақтабгача таълим кафедраси ўқитувчиси

Ушбу Республика масофавий илмий-амалий анжуманининг илмий мақола ва тезислари тўпламида Ўзбекистон Республикасининг “Мақтабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги Қонуни, “Ўзбекистон Республикасида илк ва мақтабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари”, “Илк қадам” Давлат ўқув дастури, шунингдек, мақтабгача таълим тизимини ривожлантириш борасидаги ислохотларда белгиланган, соҳада амалга оширилаётган ишларни таҳлил қилиш ва бу борадаги тақлифларни ишлаб чиқиш бўйича илмий, амалий ва услубий тавсиялар ишлаб чиқилган.

*Мазкур тўпламга киритилган мақолалар ва тезисларнинг мазмуни, статистик маълумотлар ҳамда билдирилган фикр ва мулоҳазаларга муаллифларнинг ўзлари масъулдирлар.*

**Бухоро - 2020 йил, 3-ноябрь**

	шакллантириш	
<b>Г.Ниязова</b>	Интерактивные образовательные технологии	119
<b>А.Исмоилова</b>	Болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашнинг ўзига хос хусусиятлари ва оила билан ишлаш шакллари	125
<b>М.Файзиёва</b>	Давлат ва нодавлат мактабгача таълим муассасаларини ташкил қилиш ва бошқариш тизимининг қонуний асослари	128
<b>Г.Эргашова, Ш.Чоршанбиева</b>	Мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида	134
<b>Г.Рахмонова</b>	Талабаларда маънавий-ахлоқий компетенцияларни ривожлантириш	137
<b>Ф. Нуруллаев, Н.Икрамова</b>	Педагогическая значимость использования интерактивных методов в системе дошкольного образования	143
<b>Д.Ғафурова</b>	Разностороннее развитие детей дошкольного возраста в театрализованной деятельности	146
<b>М. Шарипова, С.Садиева</b>	Мактабгача таълимда халқ дostonларни ўргатиш орқали	151

6. Ершова А.П. Взаимосвязь процессов обучения и воспитания в театральном образовании // Эстетическое

## MAKTABGACHA TA'LIMDA XALQ DOSTONLARNI O'RGATISH ORQALI MADANIYAT, MA'RIFAT, TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

*Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi Sharipova Maxbuba  
Baxshilloeyvna,*

*14-5MT-20 guruh talabasi Sadiyeva Sayhuna Sobir qizi*

**Annotatsiya:** *Maqolada maktabgacha ta'limda xalq dostonlarni o'rgatish orqali madaniyat, ma'rifat, tarbiya vositasi sifatida haqida fikr yuritilgan.*

**Аннотация:** *В статье рассматривается фольклор как средство культуры, просвещения и просвещения через преподавание народных эпосов в дошкольном образовании.*

**Annotation:** *The article discusses preschool education as a means of culture, enlightenment, education through the teaching of folk epics*

**Kalit so'zlar:** *doston, xalq og'zaki ijodi, folklor, ma'naviy, tarbiyashunos, hikmat, donolik, aql-zakovat, oqilona, yozma adabiyot, maqol, naql, otalar so'zi, donolar so'zi.*

**Ключевые слова:** *эпос, устное народное творчество, фольклор, духовный, воспитатель, мудрость, ум, сообразительность, разумный, литература, пословица, афоризм, слово отцов, слово мудрецов.*

**Kewwords:** *epic, folklore, folklore, wise, spiritual, tutor, orally, wisdom, mind, ingenuity, reasonably, literature, proverb, aphorism, words of fathers, words of wise men.*

*Turli xalqlarning milliy o'zligini, ularning tili va hayot tarzini, an'ana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san'ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir. Jahon madaniy merosining bu o'lmas asarlari bizga insoniyatning naslu nasabi, tarixiy ildizlari, olijanob ideallari bir ekanini, binobarin, turli millat va elat vakillarining kelajak sari intilishlari ham mushtarak ekanini anglatadi*

O'zbek xalq dostonlari juda uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Uning eng qadimgi namunalari saqlanib qolmagan. O'tgan asrda yozib olingan dostonlargina bu janrning ko'p davrlar osha xalq baxshilari hofizasida og'zaki ravishda muayyan o'zgarishlar bilan bizgacha etnb kelganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham ularni xalq baxshilari faoliyatidan ajratib o'rganish mumkin emas. Xalq og'zaki ijodining yuksak professional san'at turi — doston va dostonchilikning paydo bo'lishi, taraqqiyoti baxshilar nomi bilan bog'liqdir. H.T.Zarifovning yozishicha, baxshi mo'g'ulcha va buryatcha baxsha, bag'sha so'zlaridan olingan bo'lib, ustod, ma'rifatchi degan ma'nolarni beradi. O'zbeklarda baxshi — keng ma'noda xalq dostonlarini kuylovchi, yodda saqlovchi va nasldan naslga o'tkazuvchi san'atkor. Xalq orasida baxshi so'zi turli xarakterdagi ikki vazifani bajaruvchi shaxsga nisbatan qo'llangan. Ko'pchilik yerlarda professional dostonchi, ayrim joylarda afsungarlik, folbinlik, shamanlik qiluvchi shaxsga nisbatan ishlatilgan. Uzoq o'tmishda bu ikki vazifani bir shaxs bajargan. Keyinchalik esa, kasbda muayyan ajralish yuzaga kelgan. Ko'pchilik yerlarda esa, ikkinchi vazifani bajaruvchi shaxs qushnoch, duoxon, kinnachi kabi turli-tuman so'zlar bilan ifodalanadi. Xalq dostonchilarini O'zbekistonning ayrim yerlarida baxshi so'zidan boshqa nomlar bilan ham yuritiladi. Dostonchi Surxondaryo va Qashqadaryoning ayrim joylarida yuzboshi, Janubiy Tojikiston o'zbeklari orasida soqi, Surxondaryo va Janubiy Tojikistonning ayrim joylarida sozanda, Farg'ona vodiysida sanovchi, ayrim tumanlarda jirov, jirchi, oqin, oxun va hokazo.

Xorazmda epik asarlarni, ulardan olingan parchalar va ayrim termalarni kuylovchi ijodkorlarning yana bir turi xalfalar, deb yuritiladi. Xalfachilik, asosan, ayollar orasida keng tarqalgan. Xalfalar ko'proq «Oshiq g'arib va Shohsanam», «Oshiq Oydin», «Asilxon», «Hurliqo va Hamro», «Qumri», «Qissai Zebo», «Tulumbiy», «Zavriyo», «Durapsho», «Bozirgon», «Xirmon dali» kabi dostonlarni, Maxtumquli she'rlarini, turli marosim qo'shiqlarini va o'zlari yaratgan asarlarni ijro etadilar. Ular mahalliy xalqning barcha to'y-hashamlarida, turli marosimlarda, ayollar yig'inlari va bayramlarda qatnashadilar, to'y va marosimlarni boshqaradilar. Xalfachilik ayollar san'ati sifatida Xorazm vohasida shu

kunlarda ham keng davom etmoqda.. Hodi Zarif, Buyuk Karimov, Mansur Afzalov, Muzayyana Alaviya, Jumaniyoz Qobulniyozov, Muhammadnodir Saidov singari olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, XIX asr va XX asr boshlarida o'zbek baxshilari repertuarida yuz ellikka yaqin doston bo'lgan. Folklorshunoslarimiz ulardan yuzga yaqinini (variantlari bilan to'rt yuzdan ortiq) yozib oldilar. O'tgan asrda ikki yuzdan ortiqroq dostonchi aniqlandi va ro'yxatga olindi. Ulardan Jumanbulbul, Jossoq, Bo'ron shoir, Jolmon baxshi, Sulton kampir, Tilla kampir, Xonimjon xalfa, Bibi shoira, Suyav baxshi, Amin baxshi, Yo'ldoshbulbul, Sultonmurod, Qurbonbek, Xidir shoir, Yo'ldosh shoir, Suyar shoir, Sherna yuzboshi, Haybat soqilar xalq orasida shuhrat qozongan. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkan shoir, Islom Nazar o'g'li, Umir shoir, Abdulla shoir, Xolyor Abdukarim o'g'li kabi etuk shoirlar baxshichilikdagi juda boy an'analar asosida muhim voqealarni tasvirlovchi yigirmadan ortiq yangi dostonlar yaratdilar. Dostonlarda ezgulik, ozodlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, qahramonlik kabi insoniy g'oyalar mislsiz mahorat bilan tarannum etilgan va insonni hamisha ma'naviy kamolot sari yetaklagan. Ana shunday umrboqiy asarlardan biri «Alpomish» dostonidir. O'n asrki bu doston nafaqat xalq tilida balki xalq dilida yashab keladi. Filolog M.Qo'shmoqovning yozishicha: «Alpomish alp bo'lgan uchun ming yillar davomida xalq yuragida o'lmay yashab keladimi? Aslo! Alplik Alpomish obrazining bir qirradi, xolos. Alpomish aslida ma'naviyat qahramonidir. U vatan mustaqilligi, xalqning ma'naviy birligi uchun ozodlik, ezgulik, tinchlik uchun kurashgan qahramon... Ma'naviyat qahramoni bo'lgani tufayli ham u xalqning ideal qahramoniga aylandi. Shuning uchun o'zbek xalqi o'z tarixining eng qora kunlarida ham Alpomishni yuragida saqladi, undan madad oldi. Undan ibrat qilib Alpomish o'g'illarni, Barchin qizlarni voyaga yetkazdi».

«Alpomish» dostoni o'zbek xalqining sevikli dostoni bo'lgani bejiz emas. Undagi voqealar hayotiyliigi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi, mardlik, fidoiylik, samimiyat, to'g'rilik, hamiyatlilik, do'stga sodiqlik, yorga vafodorlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlardan iborat bo'lgan o'zbek milliy ruhiyati yaqqol ko'rinadi. Shu bois ham «Alpomish» dostonining 1000 yilligi 1999 yilda Termiz shahrida keng nishonlandi. Zero, «Turkiy tarixning eng chuqur qatlamlaridan ibtido olgan bu doston o'zbekning o'lmas so'zi timsoli sifatida munavvarlik olib kiradi.

Chinakam xalq so'zining umri boqiydir." Xalq dostonlarining juda katta qismi sevgi sarguzashtlarini tasvirlashga bag'ishlanadi. Ishqiy-romantik dostonlarda voqea tuguni oshiqning ma'shuqa haqida xabar topishidan boshlanadi. Masalan, «Ravshan» dostonida Ravshan Zulxumorni uzukda ko'rib qoladi. «Kuntug'mish»da Xolbeka yigitni tushida ko'radi, Kuntug'mish qizning suratiga oshiq bo'lib qoladi, ya'ni bir-birini ko'rmagan odamlar o'rtasida g'oyibdan sevgi paydo bo'ladi. Sof sevgi esa hamisha odamni qahramonlikka, jasurlikka, jasoratga undaydi.

«Zevarxon» dostonida Zevar va Malikai Xubon o'rtasidagi chuqur insoniy munosabatlar, visol va hijron, vafo va sadoqat, do'stlik tarannum etiladi.

«Kuntug'mish» dostonida yoshlarni kasb-hunar o'rganishga undovchi misralar behisob. Qilichxon laqabli podshoning Kuntug'mish degan yolg'iz o'g'li bo'lib, o'n to'rt yoshga to'lguncha ilm-hunar o'rganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. O'n to'rt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko'pkari chopish kabi sipohilik hunarlarini o'rganadi, har tomonlama komil shahzoda bo'lib yetishadi.

«Ravshan» dostoni ham ishqiy – sarguzasht dostonidir. Bu doston ham «Go'ro'g'li» turkumiga mansub, «Ravshan» pok va samimiy muhabbatini kuylovchi, maqsadga erishish yo'lida mardlik va botirlikni ulug'lovchi, zulm va adolatsizlikni qoralovchi asardir.

«Malikai ayyor» dostoni ham «Go'ro'g'li» turkumiga kiradigan dostonlardan biri. Unda muhabbat hangomalari va ishqiy sarguzashtlar serob. Dostonda or-nomus, imon-e'tiqod, insoniy iroda, chidam, topqirlik singari ezgu ma'naviy sifatlar tasvirlanadi. O'zbek yigitlariga xos eng olijanob fazilatlar Avaz timsolida aks etgan. Dostonda xalq maqol, matal va qo'shiqlaridan juda keng foydalanilgan.

«Oysuluv» dostonidagi Oysuluv o'zbek xotin-qizlarining umumlashma obrazidir. Uning hozirgi zamon xotin-qizlariga ibrat bo'luvchi go'zal xislatlari juda ko'p. Masalan, Oysuluv o'g'lining zindonband bo'lganini eshitib esankirab qolmaydi, balki sabr-toqat qilib, mulohaza bilan ish ko'radi, qo'rqmay Eron elchilariga qarata: «Men Turon mamalakatimni, elu-xalqimni unga bermayman!»-deb xitob qiladi. Dostonlar ko'rib turganimizdek, yigitlarimizni mardlikka, jasurlikka, mehnatsevarlikka

chorlaydi. Shuningdek, do'stga vafodorlik, aka-uka o'rtasidagi mehribonlik, ota-onaga fidoyi bo'lishga o'rgatadi. Masalan, aka-uka o'rtasidagi mehribonlik «Kuntug'mish» dostonida Gurkiboy va Mohiboy obrazlarida, do'stlar o'rtasidagi sadoqatlik «Zevarxon» dostonida Zevarxon va Xasanxon, «Alpomish» dostonida Alpomish va Qorajon obrazlarida tasvirlangan.

Xulosa qilib aytganda, dostonlar xalqimizning o'ziga xos badiiy tarixi bo'lib, tarixiy-madaniy ahamiyati tengsizdir. Ularda xalqimizning asrlar bo'yi qilgan orzu-umidlari, kelajak haqidagi o'y-fikrlari mujassamlashgan. Xalq dostonlari milliy iftixor va o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik, o'zaro ishonch, do'stlik tuyg'ularini tarbiyalashda juda katta g'oyaviy-estetik vazifani o'taydi. Dostonlar mavzusiga singdirilgan maqollar va hikmatli so'zlarning axloqiy tarbiyadagi ahamiyati cheksizdir. Ishqiy-romantik dostonlar yoshlarni sevgida vafodor, do'stga sadoqatli qilib tarbiyalasa, qahramonlik va jangnoma dostonlar yoshlarda insonparvarlik, vatanparvarlik kabi chin insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Go'zal xulq, mukammal ma'naviy - axloqiy fazilatlarni har bir insonda mujassam bo'lishi ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Shu bois yuksak ma'naviy axloqli yoshlarni tarbiyalashda xalq pedagogikasining boshqa manbalari qatori dostonlarning tarbiyaviy ahamiyatini ta'lim-tarbiya jarayoniga singdirishimiz lozim. Xalq dostonlarida milliy an'analar, urf-odatlar, insoniy qadriyatlar doim ijobiy obrazlar, xatti-harakatlari bilan bog'lab tasvirlanadi, ular timsolida adolatparvarlik, rostgo'ylik, mardlik, insonga mehr-muhabbat bilan qarash, halollik, vafodorlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, do'stlik va samimiyat kabi xislatlar, mehnat tarbiyasi, jismoniy kamolot, aqliy va axloqiy sifatlar ulug'lanadi. Dostondagi ijobiy qahramonlarni xalq o'z donishmandlariga aylantirgan.

Demak, xalq og'zaki ijodining barcha janrlarida, jumladan dostonlarda ilgari surilgan muhim g'oyalar, ijobiy qahramonlar timsolida mujassamlashgan insoniy fazilatlar, milliy qadriyatlar hozirgi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi ishonch-e'tiqodlar, urf-odatlar, udumlar mohiyatini kelajak avlodga yetkazishning eng samarali yo'li ham xalq og'zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanishdan iboratdir. Zero, bu durdonalar turli ramziy obrazlar orqali o'tmishimiz bilan hozirimizni bir-biri bilan chambarchas bog'lab turadi,



yoshlarga estetik zavq va did bag'ishlashdan tashqari axloqiy shuurini ham uyg'otadi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Эшонкул Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши.: Насаф, 1999. –172 б.
2. Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Зарифов ва Т.Мирзаев. – Т.: Шарқ, 1998. – 400 б.
3. Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Т.: Фан, 2008.–290 б.
4. Мирзаев Т. “Алпомиш” қаҳрамонлик эпоси ва ўзбек достонлари // Алпомиш. – Т.: Фан, 1999. – Б.7-49.
5. Мирзаев Т., Эшонкул Ж., Фидокор С. “Алпомиш” достонининг изоҳли луғати. – Т.: “Elmus-Press-media”, 2007. – 162 б.
6. Ўраева Д. Яхшиларга ёндашиб // Охунжон Сафаров. Ижодий портрет. – Т.: Мухаррир, 210. – Б.75-78.

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА МЕТОДИКА ФАНLARINI O'QITISH TEXNOLOGIYASINING ASOSIY TAMOYILLARI

*BuxDU o'qituvchisi L.CH.Rajabova,  
BuxDU talabasi A.A.Baxranova.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasini o'rgatishda asosiy tamoyillar haqida ma'lumot berilgan.

**Аннотация:** В статье представлена информация об основных принципах технологии обучения при преподавании методических предметов в дошкольном образовании.

**Annotation:** The article provides information on the basic principles of teaching technology in teaching methodological subjects in preschool education.

**Tayanch so'zlar:** metodika, ta'lim prinsiplari, tarbiyaviylik, ilmiylik, tizimlilik, tushunarlilik, ko'rgazmalilik, onglilik va faollik prinsipi, puxtalik prinsipi, ta'limni alohidalashtirish

**Ключевые слова:** методология, принципы обучения, педагогический, научный, систематический, понятный,